



## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida shahar korxonalarini tomonidan 22,5 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 99,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (67,6 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 5,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 19,7 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 70,0 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,0 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 22,3 % ini tashkil etdi.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish - 4,4 martaga hamda chaqiq tosh - 10,9 % ga oshgan.

Shu bilan bir qatorda shag‘al qazib olish 87,1 % ga, gaz kondensati - 4,6 % ga pasaygan.



| Sanoat mahsulotlari                | 2019- yil<br>yanvar-may | 2020- yil<br>yanvar-may | Farqi<br>+/- |
|------------------------------------|-------------------------|-------------------------|--------------|
| <b>Neft, ming t..</b>              | 56,7                    | 247,6                   | 190,9        |
| <b>Gaz kondensati,<br/>ming t.</b> | 340,0                   | 324,5                   | -15,5        |
| <b>Tabiiy gaz, mln.<br/>kub.m.</b> | 14628,7                 | 14598,7                 | -30,0        |
| <b>Chaqiq tosh, t.</b>             | 170156,9                | 188699,0                | 18542,1      |
| <b>Shag'al, t.</b>                 | 63000,0                 | 8157,6                  | -54842,4     |



### Ishlab chiqaradigan sanoat'


2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,2 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 67,6 % ini tashkil etdi.





### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 6,5 % ni (2019- yil yanvar-may oylarida - 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 24,5 % (25,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 38,8 % (37,5 %) va quyi texnologiyalisi - 35,0 % (35,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 30,6 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 87,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 9,0 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 10,7 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,2 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,6 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,9 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 527,0 mln. dona tamaki maxsulotlari (2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 42,4 % ga o'sgan), 131562,9 ming dona butilka (31,5 %), 3526,8 ming litr uzum vinosi (26,1 %), 18802,4 ming litr pivo mahsulotlari (0,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari  | 2019- yil yanvar-may | 2020- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|--|----------------------|----------------------|-----------|
| Texnik oltin gugurt tonna  | 124883               | 116841               | -8042,0   |
| Plastmastdan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar tonna | 4768                 | 4905                 | 137,0     |
| Antibiotik yoki garmonlardan tashqari dori vositalari tonna                                    | 7475,6               | 7797,4               | 321,8     |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.   | 769,7                | 627                  | 142,7     |
| Sovutgich va muzlatgichlar, dona   | 179247               | 125466               | -53781,0  |



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 70,0 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari   | 2019- yil<br>yanvar-may | 2020- yil<br>yanvar-may | Farqi<br>+/- |
|---|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Elektroenergiya,<br>mln.kVt/s                                 | 167,0                   | 150,0                   | -17,0        |
| Issiqlik energiyasi,<br>ming gkal                             | 6459,2                  | 6999,6                  | 540,4        |
| Elektroenergiya<br>yetqazish bo'yicha<br>xizmatlar, ming so'm | 518343,0                | 162227,0                | 356116,0     |



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari   | 2019- yil<br>yanvar-may | 2020- yil<br>yanvar-may | Farqi<br>+/- |
|---|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 39473,9                 | 30168,4                 | -9305,5      |
| Xavfsiz chiqindilar yig'ish bo'yicha xizmatlar , mln. so'm                                      | 37994,4                 | 38662,8                 | 668,4        |
| Tabiiy suv; suv ta'minoti va suvni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm                  | 66023,2                 | 68446,6                 | 2423,4       |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari 1,8 % ga, hamda axlat o'rالarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,7 % ga oshganlik kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 23,6 % ga pasayish kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7,4 trln.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 58,5 % dan 57,9 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,9 % (2019- yil yanvar-may oylarida 6,4 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 17,6 % ni, shuningdek, Yashnabod tumani 13,1 % ni, Mirzo Ulug'bek tumani 11,9 % ni, Sirg'ali tumani 9,9 % ni hamda Olmazor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida shahar o'sish sur'ati (105,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bektemir (118,3 %), Mirobod (113,6 %), Sirg'ali (108,0 %), Yakkasaroy tumanlarida (107,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)**

|                        | Mird. so'm     | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | 2019- yil<br>yanvar-may<br>oylariga<br>nisbatan, % da |
|------------------------|----------------|------------------------------------|---|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>7 392,4</b> | <b>100,0</b>                       | <b>106,3</b>  |
| Uchtepa                | 456,0          | 6,2                                | 106,5   |
| Bektemir               | 1302,1         | 17,6                               | 118,3   |
| Yunusobod              | 385,3          | 5,2                                | 102,3   |
| Mirzo Ulug'bek         | 880,5          | 11,9                               | 104,2   |
| Mirobod                | 430,5          | 5,8                                | 113,6   |
| Shayhontoxur           | 489,3          | 6,6                                | 104,5   |
| Olmazor                | 637,6          | 8,6                                | 102,0   |
| Sirg'ali               | 729,5          | 9,9                                | 108,0   |
| Yakkasaroy             | 494,8          | 6,7                                | 107,0   |
| Yashnabod              | 967,6          | 13,1                               | 106,7   |
| Chilonzor              | 619,3          | 8,4                                | 90,1  |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 43,7 %, shuningdek, Sirg'ali 10,9 % va Yashnabod tumanlarida 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yunusobod tumanida (120,9 %), Bektemir tumanida (119,9%), Mirobod tumanida (119,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)**

|                        | Mird. so'm     | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | 2019- yil<br>yanvar-may<br>oylariga<br>nisbatan, % da |
|------------------------|----------------|------------------------------------|---|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>2 678,4</b> | <b>100,0</b>                       | <b>115,9</b>  |
| <b>Uchtepa</b>         | <b>180,6</b>   | <b>6,7</b>                         | <b>112,5</b>  |
| <b>Bektemir</b>        | <b>1 170,6</b> | <b>43,7</b>                        | <b>119,9</b>  |
| <b>Yunusobod</b>       | <b>112,8</b>   | <b>4,2</b>                         | <b>120,9</b>  |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | <b>120,7</b>   | <b>4,5</b>                         | <b>115,1</b>  |
| <b>Mirobod</b>         | <b>95,5</b>    | <b>3,6</b>                         | <b>119,0</b>  |
| <b>Shayhontoxur</b>    | <b>85,6</b>    | <b>3,2</b>                         | <b>115,7</b>  |
| <b>Olmazor</b>         | <b>198,5</b>   | <b>7,4</b>                         | <b>104,6</b>  |
| <b>Sirg'ali</b>        | <b>290,8</b>   | <b>10,9</b>                        | <b>114,8</b>  |
| <b>Yakkasaroy</b>      | <b>55,3</b>    | <b>2,1</b>                         | <b>114,3</b>  |
| <b>Yashnabod</b>       | <b>224,4</b>   | <b>8,4</b>                         | <b>111,2</b>  |
| <b>Chilonzor</b>       | <b>143,7</b>   | <b>5,4</b>                         | <b>112,2</b>  |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelib, 17,8 % ni, shuningdek, Chilonzor tumanida 11,1 % ni, Yakkasaroy tumanida 10,3 % ni, Olmazor tumanida 10,3 % ni hamda Sirg'ali tumanida 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnabod tumanida (112,7 %) Mirobod (112,2 %), Yakkasaroy (106,2 %), Bektemir (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)**

|                        | Mlrd. so'm     | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | 2019- yil<br>yanvar-may<br>oylariga<br>nisbatan, % da |
|------------------------|----------------|------------------------------------|---|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>4 279,0</b> | <b>100,0</b>                       | <b>101,9</b>  |
| <b>Uchtepa</b>         | 275,5          | 6,4                                | 102,9   |
| <b>Bektemir</b>        | 131,5          | 3,1                                | 105,9   |
| <b>Yunusobod</b>       | 248,0          | 5,8                                | 96,8  |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | 759,8          | 17,8                               | 102,6   |
| <b>Mirobod</b>         | 335,0          | 7,8                                | 112,2   |
| <b>Shayhontoxur</b>    | 368,4          | 8,6                                | 103,4   |
| <b>Olmazor</b>         | 439,1          | 10,3                               | 100,9   |
| <b>Sirg'ali</b>        | 408,1          | 9,5                                | 103,8   |
| <b>Yakkasaroy</b>      | 439,4          | 10,3                               | 106,2   |
| <b>Yashnabod</b>       | 398,6          | 9,3                                | 112,7   |
| <b>Chilonzor</b>       | 475,6          | 11,1                               | 85,0  |



**O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

|                        | <b>2020- yil<br/>yanvar-may<br/>mlrd. so'm</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|------------------------|--|-------------------------------------|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>22518,2</b>                                 | <b>99,6</b>                         |
| <b>Uchtemir</b>        | 1173,6   | 98,8                                |
| <b>Bektemir</b>        | 1928,1   | 99,6                                |
| <b>Yunusobod</b>       | 1360,0   | 109,0                               |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | 1772,3   | 95,5                                |
| <b>Mirobod</b>         | 2426,0   | 89,2                                |
| <b>Shayhontoxur</b>    | 1554,0   | 95,1                                |
| <b>Olmazor</b>         | 1747,6   | 105,6                               |
| <b>Sirg'ali</b>        | 1655,7   | 99,1                                |
| <b>Yakkasaroy</b>      | 1060,9   | 101,7                               |
| <b>Yashnabod</b>       | 6672,7   | 101,0                               |
| <b>Chilonzor</b>       | 1167,3   | 103,4                               |




**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Samarqand (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 83,4%), Qashqadaryo 92,4 %), Sirdaryo (93,4 %), Toshkent (100,2 %), Farg'ona (96,5 %) viloyatlarda hamda Toshkent (99,6 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish  
fizik hajmi indeksi, % da**



**Iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishda o'sish  
sur'ati, % da**




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi Yunusobod tumanida (120,9 %), Bektemir tumanida (119,9%), Mirobod tumanida (119,0 %) sezilarli darajada oshdi.



## Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnabod tumanida (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,6 %), Mirobod tumanida (10,8 %), Bektemir tumanida (8,6 %), Mirzo Ulug'bek tumanida (7,9 %), hamda Olmazor tumanida (7,8 %) ni tashkil etmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Yakkasaroy tumanida (4,7 %) hamda Chilonzor tumanida (5,2 %) to'g'ri kelmoqda.





## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-may oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7,8 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumaniga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,2 %), Sergeli tumanida (68,7 %), Olmazor (67,1 %), Uchtepa (52,6 %), Yakkasaroy (50,7 %) va Yunusobod (33,8 %) tumanlarida kuzatildi.


Respublikamiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnabod (14,2 %), Mirobod (16,9 %) va Bektemirt (30,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shaharda 14,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,0 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 13,8 % i) Olmazor tumaniga, 1,9 mingtasi (12,7 %) Chilonzor tumaniga, 1,8 mingtasi (12,1 %) Uchtepa tumaniga, 1,6 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,3 mingtasi (9,0 %) Shayhontoxur tumaniga, 1,3 mingtasi (8,6 %) Sergeli tumaniga to'gri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**




2020- yil yanvar-may oyida shaharda 734 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 104 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,2 %) Olmazor tumaniga, 96 tasi (13,1 %) Chilonzor tumaniga, 79 tasi (10,8 %) Uchtepa tumaniga, 77 tasi (10,5 %) Yunusobod tumaniga, 76 tasi (10,4 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga hamda 71 tasi (9,4 %) Shayhontoxur tumaniga to'g'ri keladi.




## Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalar Olmazor (2 045 ta), Chilonzor (1873 ta), Uchtepa (1796 ta), Yunusobod (1 615 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar  
(1 iyun 2020 yil holatiga)**



**Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar  
(1 iyun 2020 yil holatiga)**



2020- yilning 1- may holatiga ko'ra shaharda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar Bektemir tumani (491 ta), Mirobod tumani (824 ta); Yakkasaroy tumani (1152 ta); Yashnobod tumani (1169 ta); Mirzo Ulug'bek (1218 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (71) 230-88-16